

**YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZIM SOHASIDA AMALGA
OSHIRALAYOTGAN ISLOHOTLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR.**

Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li

*Jizzax davlat pedagogika universiteti "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Tel: (99) 526 69 79

Zokirov Xumoyun Yorqin o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizim sohasida amalgamoshiralayotgan islohotlar va undan kutilayotgan natijalar, turizim sohasini yanda jadal rivojlanmasligiga sabab bo'layotgan muammolar va ularning yechimlari, turizim bo'yicha xorijiy rivojlangan davlatlarning tajribalarini O'zbekiston turizim sohasini rivojlantirishga doir tajribalari, Davaltimizda turizim bo'yicha kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar haqidagi fikrlar dalillar asosida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Turizim, soha, sarguzasht turizimi, agroturizim, madaniy turizim, ekoturizim, tibbiy turizim, dinniy turizim, sport turizimi, tarjimon, mehmonxona, yo'l infratuzilmasi, oziq-ovqat, daromad, ish bilan bandlik, tizimli muammolar, turizim sohasidagi kadrlar, turizim qo'mitasi, O'zbekturizim.

Аннотация: В данной статье рассмотрены реформы, реализуемые в сфере туризма в Узбекистане и ожидаемые от них результаты, проблемы, вызывающие развитие сферы туризма и их решения, опыт зарубежных развитых стран по развитию сферы туризма. в Узбекистане развитие туризма в нашей стране Представлены мнения о реформах в сфере подготовки кадров на основе фактических данных.

Ключевые слова: Туризм, промышленность, приключенческий туризм, агротуризм, культурный туризм, экотуризм, медицинский туризм, религиозный туризм, спортивный туризм, переводчик, гостиница, дорожная

инфраструктура, питание, доходы, занятость, структурные проблемы, туристический персонал, комитет по туризму, Узбектуризим.

Annotation; This article presents the reforms being implemented in the tourism sector in Uzbekistan and the expected results, the problems that prevent the tourism sector from developing rapidly and their solutions, the experiences of foreign developed countries in tourism with the experiences of Uzbekistan in developing the tourism sector, and opinions on reforms in the field of tourism training in our country, based on evidence.

Key words: Tourism, industry, adventure tourism, agrotourism, cultural tourism, ecotourism, medical tourism, religious tourism, sports tourism, translator, hotel, road infrastructure, food, income, employment, systemic problems, personnel in the tourism sector, tourism committee, Uzbektourism.

Turizim bu insonlarning sayohat uchun o'zlarining doimiy yashash joylaridan boshqa joylarga vaqtinchalik ko'chib o'tishi tushuniladi. Turizim dam olish maqsadida qilinadigan amaliy foliyat hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turizim sohasini ahamiyati haqida quydagi fikrlarni bildirganlar. "Turizim – jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida turizim milliy darmadning asosiy manbaiga aylanishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy reytingda turizimdan keladigan daromad avtomobilsozlik van eft-gaz sanotidan keyin uchunchi o'rinni egallaydi" [1,344]. Yuqoridagi fikrdan ko'rinib turibdiki dunyo iqtisodiyotida turizim daromad keltiradigan uchunchi eng yirik sohalardan biri. Dunyodagi turizim sohasi bo'yicha mashhur davlatlarning tarjribalarini o'rgangan holda O'zbekistonda islohotlar boshlangan, bu boshlangan ishlar izchilik bilan davom ettirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizim sohasini tartibga solish uchun 2019-yil 18-iyunda "Turizm to'g'risida"gi 45 moddadan iborat bo'lgan qonuni qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra turizim sohasi bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi.

“Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

mazkur sohani mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirish;

sayohatlarni amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning dam olish, erkin harakatlanishga bo‘lgan huquqlarini va boshqa huquqlarini ta’minlash;

turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ichki turizmni rivojlantirish, shu jumladan ijtimoiy turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining kam ta’minlangan qatlamlari uchun turizm hamda ekskursiyalarni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va investitsiyalar kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

tadbirkorlik subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;

turizm sohasining subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash orqali rag‘batlantirish;

turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va mol-mulki himoya qilinishini ta’minlash;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va rivojlantirish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasining turizm uchun jozibador mamlakat sifatidagi nufuzini oshirish;

turizm sohasi subyektlarini ular turistik bozorlarda milliy turistik mahsulotni targ‘ib qilishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

ilg‘or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag‘batlantirish;

turistik zonalar va turistik klasterlarning rivojlantirilishini rag'batlantirish[2,2]”.

Yuqorida belgilab olingan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari asosida O‘zbekistonda turizimni rivojlantirish bo‘yicha quydagи ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Dunyo davlatlari uchun viza rejimi yengillashtirish, hususan ko‘plab rivojlangan mamlakatlar fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgan. Turizm sohasidagi xususiy sektor vakillariga imtiyozlar berilmoqda va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar amalga oshirilmoqda. Turistik markazlar, mehmonxonalar va transport tizimlari modernizatsiya qilinmoqda. Yangi avia va temir yo‘l yo‘nalishlari ochilmoqda. Ekoturizm va agroturizm loyihalari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar jahon turizm markazlariga aylantirilmoqda. YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan obidalarning restavratsiyasi va rekonstruksiysi amalga oshirilmoqda. Milliy madaniyat va san‘at festivallari tashkil etilib, turistik oqimni oshirishga xizmat qilmoqda. Hususan har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan Sharq taronalari bunga misol bo‘la oladi. Turizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlab beradigan Samarqand turizm va madaniy meros texnikumi, Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi, Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi, Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumlari o‘z faoliyatlarini olib bormoqda bundan tashqari turizim sohasida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash uchun Ipak yo‘li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Turistik xizmatlar sifati xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Mahalliy aholi o‘rtasida turizm madaniyatini oshirish choralar ko‘rilmoxda. Raqamli turizm platformalari va mobil ilovalar ishlab chiqilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turistik salohiyatini targ‘ib qilish kuchaytirilmoqda. Xalqaro ko‘rgazmalar va yarmarkalarda faol ishtiroy etilmoqda. Turizim sohasi qilinayotgan bunday ishlarni jadalik bilan davom ettirish kerak. Hususan turizm bo‘yicha dunyoning rivojlangan davlari o‘rtasida bu sohada raqobat oshib bormoqda.

Dunyo davlatlari ichida turizim sohasida yetakchi 10 davlatlarni ko‘rib

chiqamiz. 1. Fransiya, 2. Ispaniya, 3. AQSh, 4. Xitoy, 5. Italiya, 6. Turkiya, 7. Meksika, 8. Tailand, 9. Germaniya, 10. Buyuk Britaniya. Bu davlatlar turizim sohasini jadal rivojlantirgan, bu davlatlarning tajribalarini diqqat bilan o'rganib o'zimiz uchun kerakli tahriba va bilmlarni olgan holda O'zbekistonning turizm sohasini rivojlantirishimiz zarur.

O'zbekiston turizimni rivojlantirish uchun quydag'i maqsadlari o'zi uchun asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. Ushbu vaizifalar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quydagilarni aytib o'tdi. "O'zbekiston turizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini oshirish, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash va infratuzilmasini kengaytirish mamalakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Hususan, turizmni rivojlantirish konsepiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizimni ulushini 5 foizga yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar 9 million nafardan ortiq turistlarni, shu jumladan, uzoq xorijdan 2 millon sayohni jalb qilish belgilab qo'yildi.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega. Zotan, bizda jami 8.2 ming madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi Yuneskoning Butujahon merosi ro'yxatiga kiritilgan"[3,345].

Dunyoda har bir sohada bo'lgani kabi turizim sohasida raqobat kuchayib bormoqda. Mana shunday bir sharoitda biz quydag'i ishlarni qilishimiz maqsadgu muvofiq bo'ladi.

1. Markaziy Osiyo davlatlari turizim bo'yicha turizim mashurtlarini tuzish kerak.
2. Markaziy Osiyo davlatlari turizim vizlari beriladigan davlatlar ro'yxatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur.
3. Avtomobil, Temir yo'l, Havo yo'llari infrastrukturasini rivojlnatirish kerak. Avtoshoh bekatlar, temir yo'l vokzallarini sharoitlarini yevropa standarlari darajasiga olib chiqish shart.

Xulosa o'rnida shu gapni aytishim joizki turizm bo'yicha O'zbekiston barcha

daromad keltiradigan turizim turlarini rivojlantirishi zarur. Mehmonxona, Hostellar, oziq-ovqat sohasini rivojlantirish orqali aholining daromad manbalarini oshirishimiz mumkin. O'zbekiston turizm sohasini qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirsa mintaqamizning rang barang tabiatni, ko'plab turistlarni o'ziga jalb qila oladi. Markaziy Osiyo davlatlari turizim bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirib turadigan maslahat tashkilotini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston". – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2024.-344-b.
2. 2019-yil 18-iyunda qabul qilingan. "O'zbekiston Respublikasi Turizim to'g'sida"gi Qonuni. 6-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston". – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2024.-345-b.